

DEN BRAUNNING “FARISHTALAR VA IBLISLAR” ASARIDA
UCHRAYDIGAN BA’ZI TEONIMIK BIRLIKLARNING INGLIZ TILIDAN
O’ZBEK TILIGA TARJIMASI XUSUSIDA

Anvarova Farangiz Anvarovna
Termiz davlat uiversiteti tadqiqotchisi
E-mail: anvarovafarangiz9624@gmail.com
ORCID 0009-0006-8197-3681

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashhur amerikalik yozuvchi Den Braunning “Farishtalar va iblislar” asarida keltirilgan bir qancha teonimik birliklarning ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjimasi masalalari tadqiq qilingan. Ishda teonimiyalarni o’girish jarayonida tarjima qiyinchiliklari, ayrim so’zlar tarjimasining turlicha berilishi hamda ularni tarjimada berishda adekvatlikka erishish usullari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: tarjimashunoslik, tarjima usullari, tarjima qiyinchiliklari, onomastika, onomastik birliklar, teonimiya, teonimik birliklar, diniy mansablar.

О ПЕРЕВОДЕ С АНГЛИЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ НЕКОТОРЫХ
ТЕОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РОМАНЕ «АНГЕЛЫ И ДЕМОНЫ»
ДЭНА БРАУНА

Анварова Фарангиз Анваровна
научный сотрудник Термезского государственного университета
Электронная почта: anvarovafarangiz9624@gmail.com
ОРЦИД 0009-0006-8197-3681

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы перевода с английского на узбекский язык ряда теонимических единиц в произведении «Ангелы и демоны» известного американского проповедника Дэна Брауна. В работе подробно описаны переводческие проблемы в процессе преобразования теонимии, различные переводы некоторых слов, способы достижения адекватности при их переводе.

Ключевые слова: переводоведение, методы перевода, трудности перевода, ономастика, ономастические единицы, теонимия, теонимические единицы, религиозные позиции.

ABOUT THE TRANSLATION OF SOME THEONYMIC UNITS FROM
ENGLISH INTO UZBEK FOUND IN THE NOVEL "ANGELS AND
DEMONS" BY DAN BROWN

Anvarova Farangiz Anvarovna
Researcher of Termiz State University
E-mail: anvarovafarangiz9624@gmail.com
ORCID 0009-0006-8197-3681

Annotation: This article examines the issues of translation of several theonymic units from English to Uzbek in the work "Angels and Demons" by the famous

American writer Dan Brown. In the work, translation problems in the process of converting theonyms, different translations of some words, and ways to achieve adequacy in their translation are described in detail.

Key words: translation studies, translation methods, translation difficulties, onomastics, onomastic units, theonymy, theonymic units, religious positions.

Kirish. Bugungi kunda Tarjimashunoslik fani keng va rivojlangan sohalardan biri sanaladi. Har bir tarjima ijodiy jarayon sifatida tarjimoning individualligi bilan belgilanishi kerak, tarjimoning asosiy vazifasi esa tarjimada asl nusxaning o'ziga xos xususiyatlarini yetkazishdir. Originalga mos keladigan badiiy va hissiy taassurot yaratish uchun tarjimon eng yaxshi til vositalarini topishi kerak: sinonimlarni, mos badiiy obrazlarni va boshqalarni. Tarjima haqida gap ketar ekan, tarjima va uning turlari haqida to'xtalish lozim.

Biror terminni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilar ekanmiz quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin; a) tarjima qilinalayotgan tilda aynan o'sha terminning ma'nosini bildiradigan so'zning mavjud emasligi. b) tarjima qilinalayotgan termin bir ma'noga ega emasligi. Bu uchraydigan muammolarni faqatgina kontekstdan kelib chiqib tarjima qilish usuli bilangina yechish mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish va temin tarjima jarayonini yengilroq qilish uchun quyidagi tarjima usullari taklif qilinadi: 1) Transleteratsiya - ushbu usulda termin asliyat tilida qanday bo'lsa, grafik ya'ni harfma - harf qanday bo'lsa, shunday tarjima qilinadi. 2) Transkripsiya - tovush formalari orqali tarjima qilish usuli, ya'ni tarjima qilinalayotgan tilda qanday aytilsa, huddi shunday talaffuz qilib, tarjima qilinadi. 3) Kalka usulida tarjima qilish. Ushbu tarjima turi tarjimon uchun eng qulay usullardan biri hisoblanib aynan bir tilda bor terminning ikkinchi bir tildagi semantikasini to'liq saqlab qolgan tarzda so'zma - so'z tarjima, to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish. 4) Izohli tarjima usuli. Izohli tarjima usuli bir tilda mavjud bo'lgan termin boshqa bir tilga tarjima qilish jarayonida muqobil varianti topilmagan taqdirda aynan o'sha terminga izoh berish orqali tarjima qilish [1].

Nafaqat termin, balki ayrim onomastik birliklarni tarjima qilish jarayonida ham ayrim muammolarga duch kelish mumkin. Bunday holatlarda yuqoridagi tarjima usullaridan foydalaniladi. "Onomastika" – "*nom qo'yish san'ati*" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi.
2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan ob'ektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik ob'ektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim

(guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo‘lgan ob’ektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan *mifonimlar* xayoliy – to‘qima ob’ektlarning nomlarini bildiradi.

Ushbu maqolada onomastik birlik hisoblangan teonimiya haqida so‘z yuritiladi va ularning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish usullari tahlil qilinadi. “*Teonim*” (yunoncha *teog - xudo (Olloh) + onoma – atoqli ot*) – Ollohning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma’noni bildiradi. “*Teonimiya*” esa shunday atoqli otlarning to‘plami, yig‘indisi, “*teonimika*” shunday onomastik ko‘lamga mansub atoqli otlarni o‘rganuvchi soha ma’nosini bildiradi.

Teonimlar tildagi juda qadimiy lug‘aviy birliklar bo‘lib, ularning paydo bo‘lish davrlari insoniyatning o‘ta ko‘hna dunyodagi diniy qarashlari, animizm, totemizm, tabu, evfemizm singari tasavvurlari bilan bog‘liqdir. Teonimlar jonli deb hisoblanuvchi narsalar, ob’ektlar, shaxslar nomi bo‘lsa, nekronimlar qabristonlar, mozorlar, mana shu tipdagi muqaddas joylarning atoqli otlaridir. Mohiyatan teonimlar antroponimlarga, antroponimik ko‘lamga yaqin turadi, agnonimlar va nekronimlar esa jonsiz ob’ektlarning atoqli oti sifatida toponimiya, toponimik ko‘lamga mansubdir [2].

Metodlar. tadqiqot davomida chog‘ishtirma, tavsifiy metodlar, izohlash, sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Natijalar: Mazkur maqolada mashhur yozuvchi Den Brauning “*Angels and Demons*” asarida uchraydigan ayrim teonimik birliklar tarjimasida haqida so‘z yuritiladi. Amerikalik yozuvchi qalamiga mansub bestseller asarlardan biri bo‘lgan ushbu asar ilk bora o‘zbek tilida 2023-yil 8-aprel kuni “*Farishtalar va iblislar*” nomi bilan nashr etilgan. Asarda bir nechta teonimik birliklarni uchratish mumkin. Ularning ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

1. “The nuns had called for her twice to come to dinner. The priest gave her an astonished look”. Ushbu misoldagi “nuns” va “priest” so‘zlari teonimlar sanaladi. Asarning o‘zbek tilidagi variantida bu so‘zlar “rohibalar” va “ruhoniy” deb tarjima qilingan. Chunki ular o‘sha so‘zlarning aniq tarjimalari hisoblanadi. Bu esa tarjima jarayonida hech qanday qiyinchilik tug‘dirmagan. Rohibalar va ruhoniyalar xristian dinining asosiy mansablari sanaladi. Manbalarda aytilishicha, ikkala shaxslar ham turmush qurmaslikka, ya’ni tarkidunyo qilishga qasam ichishadi.

2. “The craft was white and carried a coat of arms emblazoned on the side-two skeleton keys crossing a shield and papal crown. He is the late Pope’s hand servant”. Yuqoridagi gaplarning birinchisida “papal”, keyingisida esa “Pope” teonimlari asarning o‘zbekcha tarjimasida “Papa” hamda “pontifik” deb tarjima qilingan. Har qaysi tildagi ikkala variant ham to‘g‘ri, ya’ni bular sinonimlar sifatida teng ahamiyatga ega. Papa - xristian dining otasi sanaladi va barcha qarorlar aynan mazkur shaxsning buyrug‘i bilan qabul qilinadi hamda barcha unga bo‘ysunadi. Papaning qarorgohi Italiyaning Vatikan shahrida joylashgan. Ushbu o‘rinlarda tarjimaning transliteratsiya usulidan foydalanilgan. “Transliteratsiya” – bir yozuv tizimidagi matnni boshqa yozuv tizimidagi belgilar bilan berishga aytiladi. Alifboga asoslanar ekan, transliteratsiya harflarni shartli qo‘llashga qo‘shimcha hamda diakritik belgilar kiritishga yo‘l qo‘yadi.

3. “At 7 p.m, the late Pope’s chamberlain would arrive, give opening prayer, and then leave. Langdon felt hypnotized by the camerlengo’s presence”. Endigi

misollarda ham xuddi oldingilari kabi bir ma'noli ikki so'z, ya'ni sinonimlardan foydalanilgan va butun asar bo'ylab almashtirib qo'llanilgan. Asarning o'zbekcha tarjimasida "kamerariy" sifatida tarjima qilingan. Biroq, tarjima lug'atlarga murojaat qilinganda ushbu so'zlar "kamerlen" tarzida tarjima qilindi. "Kamerariy" so'zi esa aynan "cameramen" so'zining o'zbekcha ekvivalenti ekanligi ma'lum bo'ldi. Tarjima jarayonida tarjimon to'g'ri so'z tanlash qonunlariga rioya qilgan holda hamda so'zni ekspressivligini e'tiborga olib aynan shu so'zni tanlagan deb xulosa chiqarish mumkin. Kamerariy - rasmiy ravishda Papaning yordamchisi hisoblanadi. Papaning vafotidan so'ng barcha vakolatlar to'konklavda yangi Papa saylanmaguncha kamerariy qo'lga o'tadi.

4. "Mortati was the most senior cardinal here and had been appointed to oversee the proceedings". Mazkur jumladagi "cardinal" teonimi o'zbek tiliga "kardinal" sifatida o'tkazilgan. Kardinal - Papadan keyin, yepiskopdan oldin turuvchi ruhoniylar hisoblanadi. Kardinallar papaning cherkovni boshqarish sohasidagi eng yaqin maslahatchilari va yordamchilari hisoblanadi hamda shu lavozimga papa tomonidan tayinlanadi. Konklavda Papa kardinallar tomonidan saylanadi. Bu yerda tarjimaning transkripsiya usulidan foydalanilgan. "Transkripsiya" – asliyat tilidagi so'zni tarjima tili tovushlari vositasida aniq aks ettirishga asoslangan tarjima usuli bo'lib, fonetik printsiptga asoslangan tovush vositasida tarjima qilish demakdir [3].

5. "But the college will ask about the *preferiti*... especially about Baggia... where they are". Bu misolga kelsak, "*preferiti*" so'ziga e'tibor qaratish lozim. So'zning ajratib ko'rsatilishiga sabab shuki, so'z italyan tilida qanday bo'lsa, ingliz tiliga ham shunday o'tkazilgan hamda o'zbek tilida ham xuddi shunday berilgan, hech bir imloviy o'zgarishlarsiz. So'zning ma'nosiga keladigan bo'lsak, Papaning o'limidan so'ng konklavda, ya'ni Papa saylovida 4 ta kardinalni munosib nomzod sifatida ko'riladi va ular "*preferiti*" deb ataladi. Shu o'rinda tarjimaning transfer usulidan foydalanilgan. "Transfer" tarjima ma'lum bir tildagi so'zni ikkinchi tilga hech narsani o'zgartirmasdan yoki hech qanday belgi qo'shmasdan o'tkazishdir.

6. "Actually I thought perhaps I could help you. I am the cicerone here".

So'nggi misolda uchragan teonim "cicerone" bo'lib, o'zbek tiliga "chicherone" tarzida tarjima qilingan. Asarda chicherone xristian olamiga mansub bir mansab sifatida berilgan. Biroq, ilmiy adabiyotlarda bunday rutba haqida ma'lumot berilmagan. Bu yerda ham aynan tarjimaning transkripsiya usulidan foydalanilgan.

Munozara: Mashhur amerikalik yozuvchi Den Braunning boshqa asarlari kabi mazkur asar ham dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan. Yozuvchining "Angels and Demons" asari o'zbek tiliga tarjimon A.G'afforova tomonidan "Farishtalar va iblislar" nomi bilan tarjima qilingan va o'zbek kitobxonlari tomonidan sevib o'qilmoqda. Asarning asliyat va o'zbekcha tarjimalarining qiyosiy tadqiqi orqali turli teonimik birliklarning tarjimada berilish xususiyatlari badiiy va lingvistik tarjima sohalarining rivojiga hissa qo'shadi. Mazkur asar ba'zi xristian diniga xos onomastik birliklarning alohida tarjimalarini o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahrorova M. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar. // "Tarjimashunoslar forumi", 2023.

2. “Onomastika fanidan o’quv-uslubiy majmua”. – Urganch davlat universiteti, 2022.
3. Babayeva S.R. Tarjimada qo’laniladigan an’znaviy hamda innovatsion usullar. // «Новости образования: исследование в XXI веке», 2023.
4. Дэн Браун “Фаришталар ва Иблислар”. – Тошкент, ИЛМ-ЗИЁ ЗАКОВАТ, 2023. – 640 б.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/onomastika>
6. <https://uzpedia.uz/pedia/onomastika>